

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI**



**"TASDIQLAYMAN"**

Termiz davlat universiteti  
o'quv ishlari bo'yicha prorektor  
prof. R. To'rayev  
2024 yil «16» 06

**YER KADASTRI VA TUPROQ BONITIROVKASI ASOSLARI**

**O'QUV DASTURI**

Bilim sohasi:	500 000 - Tabiiy fanlar, matematika va statistika
Ta'lim sohasi:	530 000 – Fizika va tabiiy fanlar
Ta'lim yo'nalishi:	60530700 – Tuproqshunoslik

<b>Fan/modul kodi</b> EKTB305	<b>O'quv yili</b> 2023/2024	<b>Semestr</b> 6	<b>ECTS - Kreditlar</b> 5	
<b>Fan/modul turi</b> Majburiy	<b>Ta'lim tili</b> O'zbek			
<b>1.</b>	<b>Fanning nomi</b>	<b>Auditoriya mashg'ulotlari (soat)</b>	<b>Mustaqil ta'lim (soat)</b>	<b>Jami yuklama (soat)</b>
	<b>Yer kadastr va tuproq bonitirovkasi asoslari</b>	60	90	150
<b>2.</b>	<b>I. FANNING MAZMUNI:</b>			
	<p>Fanni o'qitishdan maqsad–tuproqni tabiiy xosil bo'lishi, unumdorligi, tuproq xo'jaligi ishlab chiqarishning asosiy vositasi baxolashning nazariy va amaliy muammolari, shuningdek tuproqni sifat baxolashda tuproqshunoslik fanining rivojlanishi va shakllanishida tutgan o'rni bilan tanishtirishdan iborat.</p> <p>Fanning vazifasi–Yer kadastr va tuproqni baholash, yer kadasti tizimidagi tuproqning o'rni haqida tushuncha berish; xorijda va O'zbekistonda yerni baholash ishlarining holati to'g'risida va yer baxolarlari to'g'risida tushunchalar berish. O'zbekistondagi tuproqlarni baholash holati, hozirgi kundagi olib borilayotgan tadqiqotlar bilan tanishtirish, tuproqlarni baholashdagi asosiy muammolar bilan tanishtirish.</p>			
	<b>II. ASOSIY NAZARIY QISM (ma'ruza mashg'ulotlari)</b>			
	<b>II.I. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi: (THEMES)</b>			
	<b>1-mavzu. Kirish. Yer kadastrining mazmuni. Yer kadastrining maqsadi. Yer kadastrining vazifalari va tasnifi. Yer kadastr ishlarining tarixi. 2-soat.</b>			
	<p>O'zbekiston Respublikasining 1998 yil 29 apreldagi «Yer kodeksi»; «Fermer xo'jaligi to'g'risida»gi, «Dehqon xo'jaligi to'g'risida»gi 1993 yil 6 maydagi «Yer solig'i to'g'risida»gi, 1998 yil avgustidagi «Davlat Yer kadastr to'g'risida»gi qonunlar; Vazirlar Mahkamasining 1996 yil 17 iyulidagi «O'zbekiston Respublikasida Davlat kadastrining yagona tizimini yaratish va yuritish tartibi to'g'risida»gi va boshqa hujjatlar Yer kadastriga bo'lgan munosabatni tubdan o'zgartirib yubordi. Natijada yerga egalik qilish va yerdan foydalanishda yangi shakllar vujudga keldi.</p>			
	<b>2-mavzu. Yer kadastr turlari, yer kadastr tarkibiy qismlari, yer kadastr tamoyillari. 2-soat.</b>			
	<p>Yer kadastr o'tkazilish mazmuni va tartibiga qarab asosan 2 turga bo'linadi: asosiy yoki birlamchi va joriy yoki kundalik.</p> <p>Asosiy (birlamchi) Yer kadastrining vazifasi yerlarning tabiiy, xo'jalik hamda huquqiy holatlari to'g'risidagi ma'lumotlarni birlamchi sifatida olish va Yer kadastr hujjatlarida yoritishdan iborat. Asosiy Yer kadastr davriy ravishda qayta tasbirga olishdan, yerlarni kuzatuvdan, yer-baholash ishlarini bajargandan so'ng, yangi yer egalari yoki yerdan foydalanuvchilar tashkil etilganda, Shuningdek, qaytadan tasdiqlangan Yer kadastr hujjatlarini navbatdagi to'ldirish chog'ida o'tkaziladi.</p> <p>Joriy Yer kadastr-bu asosiy Yer kadastr o'tkazilgandan so'ng yerlardan foydalanishda ro'y beradigan o'zgarishlarni aniqlash va Yer kadastr hujjatlariga tushirishdir. Bundan</p>			

tashqari, boshlang'ich yozuvlardagi hatolarni tuzatish va zamon talablariga mos qo'shimcha ma'lumotlarni ham kiritish joriy Yer kadastrining vazifasiga kiradi. Boshqacha qilib aytganda, joriy kadastr Yer kadastr ma'lumotlarining bugungi kun darajasida bo'lishini ta'minlaydi.

### **3-mavzu. O'zbekiston respublikasi yer fondi. Yer kadastrining ob'ekti. 2-soat.**

Biosferaning bir bo'lagi bo'lgan yerimiz maydoni 51 milliard 20 mln. gektarni tashkil etadi. Qit'alar bo'yicha haydaladigan yerlar Yevropada 32 foiz, Osiyoda 21 foiz, Amerikada 20 foiz, Afrikada 11 foiz, Avstraliyada 5 foiz, Antarktidada esa yo'q. Yer maydonining o'simlik o'sadigan qismi insoniyat uchun ulkan boylikdir. Tuproqda turli jarayonlar, eroziya, sho'rlanish, botqoqlanish, ifloslanish, nurlanish va shu kabilar sodir bo'laverishi natijasida hamda insoniyatning beparvoligi oqibatida XXI asr bo'sag'asida zaharlanishi xavfi paydo bo'ldi. Jahonning ilg'or fikrli kishilari koinotni saqlash zarurligini targ'ib qila boshladilar. Insoniyatga tuproqni, koinotni, umuman yashash makoni bo'lgan biosferani saqlab qolish zarurligi ayon bo'lib qoldi.

### **4-mavzu. Korxonalar, muassasa va tashkilotlar yer kadastrini. 2-soat.**

Korxonalar, muassasa va tashkilotlarda olib boriladigan yer kadastrini mamlakat yer kadastrining asosiy tarkibiy qismi hisoblanadi. Yer kadastrini ma'lumotlari yer egaliklari hisoblanadi (yerdan foydalanuvchilar)ga ishlab chiqarish faoliyati uchun; tuman tashkilotlariga esa yerlardan to'g'ri foydalanishni nazorat qilish hamda davlat yer kadastrini ayniqsa qishloq xo'jaligi va o'rmon xo'jaligi korxonalarida katta ahamiyatga ega, qaysiki, bu yerda yer asosiy ishlab chiqarish vositasi hisoblanadi.

### **5-mavzu. Yer monitoringi mazmuni va tizimi. Yer huquqi tushunchasi.**

#### **O'zbekistonda yerga huquqiy munosabatlar. 2-soat.**

Monitoring olib borish borasidagi dunyo ahamiyatiga molik dastlabki amaliy sa'y-harakatlar Birlashgan Millatlar Tashkiloti (BMT) tomonidan 1972 yilda Stokgolmda tashkil etilgan maxsus anjumanda alohida tizimga ega bo'lgan "Atrof-muhit monitoringi" deb nomlangan dastur to'g'risidagi qaror qabul qilinishi bilan bog'liq bo'lib, dunyo hamjamiyatida ushbu dastur asosida keng ko'lamli ishlarning tadbiriq etilishi muhim bir bosqich hisoblanadi.

Fanga monitoring atamasi sobiq ittifoq Hidrometeorologiya markazi va Fanlar Akademiyasi qoshida ochilgan "Tabiiy muhit va iqlim monitoringi" laboratoriyasi tashkilotchisi Yu.A.Izrael (1974) tomonidan kiritilgan.

### **6-mavzu. Ko'chmas mulk va uni baholash. 2-soat.**

Ko'chmas mulk-bu kenglikda belgilangan o'rnashgan joyiga ega bo'lgan jismoniy ob'ektlar va ular bilan ham yer osti, ham yer usti bo'yicha chambarchas bog'liq bo'lgan yoki xizmat ko'rsatuvchi predmet hisoblangan barcha narsalar, shuningdek, ob'ektlarga egalik qilish bilan bog'liq huquqlar, manfaatlar va foydalardir. Jismoniy ob'ektlar deganda, bir-biri bilan chambarchas bog'liq bo'lgan yer uchastkalari va ularda joylashgan qurilishlar tushuniladi. Ko'chmas mulk fuqarolik huquqlarining ob'ekti hisoblanadi va u joylashgan yer uchastkalari bilan chambarchas bog'liq. O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 83-moddasiga muvofiq ko'chmas mulkka «Yer uchastkalari va yer osti, ko'p yillik ekinlar, shuningdek, bino va inshootlar» kiradi. Qonun bilan ko'chmas mulkka boshqa mol-mulk ham

kiritilishi mumkin.

### **7-mavzu. O‘zbekistonda sug‘oriladigan yerlar va undan foydalanish samaradorligi. 2-soat.**

O‘zbekiston Respublikasining yer fondi 44410,3 ming gektarni tashkil qiladi. Ushbu yer maydonining respublika qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishida foydalaniladigan qismi 25 mln. gektardan oshiqroqni tashkil qiladi. Shundan qishloq xo‘jaligida intensiv foydalaniladigan yerlar, ya‘ni sug‘oriladigan maydonlar hammasi bo‘lib 4,28 mln. gektarga teng bo‘lib, umumiy yer fondining 9 foizini tashkil qiladi.

Tuproq xaritalari va tuproq bonitirovkasiga tuzatishlar kiritish natijalari shuni ko‘rsatdiki, oxirgi yillarda yerlarning sifati holati yomonlashgan, tuproqlarning sho‘rlanishi, yer osti suvlarining sathi ko‘tarilishi jarayonlari davom etmoqda, suv va shamol eroziyasi rivojlanmoqda.

### **8-mavzu. Yerlarni iqtisodiy baholash. 2-soat.**

Vazirlar Mahkamasining 1998 yil 26 dekabrda 539-sonli “Qishloq xo‘jaligi tovar ishlab chiqaruvchilari uchun yagona Yer solig‘ining muvaqqat bazaviy stavkalarini tasdiqlash to‘g‘risida”gi qaroriga asosan respublikamizning 102 ta tumanidagi sug‘oriladigan yerlardan tuproq xaritalariga tuzatish kiritish tuproqlarning ball bonitetlarini aniqlash ishlari yakunlanib respublikamizning barcha viloyatlarida yerlarning tuproq bonitet ko‘rsatkichlari, me‘yoriy baholash hujjatlari va xo‘jalik tuproq xaritalari alohida to‘plam qilinib mazkur hujjatlar, viloyat, tuman xo‘jaliklar yetkazilgan.

### **9-mavzu. Qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yerlarning sifat, iqtisodiy va me‘yoriy bahosi. 2-soat.**

Qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yerlarni qiymat bahosini (ma‘muriy narxini) aniqlashning mazkur uslubi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1998 yil 19 maydagi 120-sonli “1998-2000 yillardagi davrda qishloq xo‘jaligidagi iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish dasturini amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risi”dagi qaroriga muvofiq ishlab chiqildi. Ushbu uslub O‘zbekiston Respublikasida qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yerlarning qiymat bahosini mavjud me‘yoriy ma‘lumotlar asosida aniqlash uchun mo‘ljallangan. Qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yerlarning me‘yoriy baholari, banklardan ipoteka qarzlari berishda, xususiy turar joylar qurilish uchun yer ajratib berish va dehqon xo‘jaliklariga me‘yoriy ortiqcha yer ajratib berishda, yer solig‘i stavkalari miqdorini aniqlash, auksion orqali yer uchastkalarini sotish va qonunchilikda kuzda tutilgan boshqa hollarda shu yerning dastlabki bahosini belgilash uchun qo‘llaniladi (kiritiladi). Yerning me‘yoriy bahosini aniqlash asosida hisoblab chiqilgan me‘yoriy sof daromad yotadi. Yerning me‘yoriy bahosi hisoblanayotganda, shu yerga ajralmas bog‘liq bo‘lgan kuchmas mulk ob‘ektlarining (qurilishlar, inshoatlar, sug‘orish va kollektor tarmoqlari va boshqa shu kabilar bahosi qo‘shib olinmaydi.

### **10-mavzu. Yer solig‘i. 2-soat.**

Yagona yer solig‘i yerdan foydalanish samaradorligini oshirish, qishloq xo‘jalik tovar ishlab chiqaruvchilari mehnatining pirvard natijalaridan iqtisodiy manfaatdorligini kuchaytirish va soliqqa tortish mexanizmini soddalashtirish uchun 1999 yilning 1-yanvaridan boshlab joriy qilingan.

Yagona yer solig'i kuyidagi barcha amaldagi umumdavlat (alkagol mahsulotlari uchun aksiz solit'idan tashqari) va mahalliy soliqlar hamda yig'implar o'rniga kiritilgan:

Daromad (foyda solig'i, qo'shilgan qiymat solig'i, aksiz solig'i, ekologiya solig'i, suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq, yer ostidan foydalanganlik uchun soliq, mulk solig'i, yer solig'i, infratuzilmagan rivojlantirish solig'i, boshqa mahalliy soliqlar va yig'implar.

### **11-mavzu. Tuproq bonitirovkasi fanning rivojlanish tarixi va o'rganish usullari. 2-soat.**

Tuproq bonitirovkasi fani-tuproqshunoslik va agrokimyo fanlari bilan besota bog'liq va ushbu fanlarning negizida rivojlanadi. Tuproqlarni baholash ishlarida tuproqlarning xossa va xususiyatlari albatta hisobga olinadi. Tuproqdagi gumus miqdori, ozuqa elementlari bilan ta'minlanganlik darajasi kabi ko'rsatkichlar tuproq unumdorligini belgilashda muhim ma'lumotlardan biri hisoblanadi.

Tuproq bonitirovka xaritalarini tuzishda yer kategoriyalari, shartli belgilar kabi ko'rsatkichlardan bevosita foydalaniladi, bu esa ushbu fanning yer tuzish va yer kadastri fanlari bilan bevosita bog'liqligini ko'rsatadi. Tuproq bonitirovkasi o'tkazish uchun qishloq xo'jaligi ekinlarining agrotexnikasi ham hisobga olinadi. Bonitet ballarini hisoblashda o'rtacha agrotexnik sharoit uchun hisob-kitob qilinadi. Demak, tuproq bonitirovkasi fani dehqonchilik fani bilan uzviy aloqadadir.

### **12-mavzu. Sug'oriladigan tuproqlarni bonitirovkalash. 2-soat.**

Agar xo'jalik tuproq xaritasida madaniylik darajasi, eroziyalanish darajasi berilgan bo'lsa xaritalar korrektirovkalanadi. Har bir tuproq tipiga alohida xaritada variatsion statistik metodi bo'yicha o'rtacha nom beriladi va nechta kesmadan olinganligi ko'rsatiladi. Ko'rsatkichlarga matematik ishlov berish kerak, bular tajribaning aniqligi va variantlar o'rtasidagi farqning ifodasini ko'rsatadi. Har bir tuproqda umumiy va asosiy ekin maydoni ko'rsatiladi, gektarlarda va foizlarda shu xo'jalikning umumiy maydoniga nisbatan olinadi.

### **13-mavzu. Sug'oriladigan tuproqlarning tavsifi. 2-soat.**

Sug'oriladigan taqirsimon tuproqlar. Taqir voha tuproqlari. Bu tip cho'l mintaqasining sizot suvlari chuqurda joylashgan sug'oriladigan tuproqlarini birlashtiradi. Bu tip vakillari uchun umumiy xossasi-qatqaloq hosil bo'lishiga moyilligi, suv-fizik xossalarini yomonlashishi, tashlab qo'yilganida taqirlanishidir. Ma'lumki, bu xossalar alohida tuproqlarda bir xil darajada aks etmagan, buning asosida tipchalar ajratilgan. Taqir voha tuproqlari tipi boshqa voha tuproqlar kabi tipchalarga ajratish dastlabki tuproq (qumli cho'l, taqir, sur tusli qo'ng'ir) belgilarini namoyon qilish nisbati va xossalari bo'yicha amalga oshirilgan.

### **14-mavzu. Sug'oriladigan tuproqlarning unumdorligini baholash. 2-soat.**

O'zbekiston Respublikasi Yer resurslari, geodeziya, kartografiya va davlat kadastri davlat qo'mitasining 2013 yil 30 oktabrdagi 21-sonli qarori bilan tasdiqlangan "Tuproq bonitirovkasi ishlarini o'tkazish va hujjatlarini tasdiqlash tartibi to'risida"gi Nizomda tuproq bonitirovkasi ishlarini qabul qilish, k o'rib chiqish va uning natijalarini yer kadastri hujjatlariga kiritishi, zarur bo'lgan hollarda «Yergeodezkadastr» davlat qo'mitasining ilmiy

texnik kengashida muhokama etishi shart deb ko'rsatilgan.

### **15-mavzu. Lalmikor tuproqlar bonitirovkasi va ularning iqtisodiy qiymati. 2-soat.**

Respublikamizning yer resurslaridan oqilona va samarali foydalanish, shuningdek, qishloq xo'jaligi ekinlari hosilini aniqroq rejalashtirish, yerlarni har tomonlama sifatli baholashni taqazo etadi.

O'zbekiston Respublikasi «Yergeodezkadastr» davlat qo'mitasining 2013 yil 30 oktabrdagi 21-sonli qarori bilan tasdiqlangan «Tuproq bonitirovkasi ishlarini o'tkazish va hujjatlarini tasdiqlash tartibi to'risida»gi Nizomida tuproq bonitirovkasi ishlari «Yergeodezkadastr» davlat qo'mitasining rejasiga muvofiq, sug'oriladigan qishloq xo'jalik yer maydonlarida har besh yilda va lalmi yer maydonlarida har o'n yilda bir marta o'tkaziladi hamda tuman hududini to'liq qamrab oladi, deb ko'rsatilgan.

Lalmikor tuproqlarni bonitirovkalash va ularni iqtisodiy qiymat bahosini aniqlash maqsadi O'zbekistonda bahorikor (lalmi) yerlarga mos tuproq tiplari, tipchalari, tur, turchalarini, ya'ni taksonomik birlik guruhlarini qiyosiy sifat bahosini ballarini aniqlash va bu natijalarni Davlat yer kadastrini tuzishda qo'llaniladi.

Lalmikor yerlarni sifatini tuproq iqlim sharoitlari bilan belgilanadi. Bu turlilik juda murakkabdir. Shu bois ularni tuproq hosil qismi omillarini birma-bir ko'rib chiqish zarur.

### **III. AMALIY MASHG'ULOTLAR BO'YICHA KO'RSATMA VA TAVSIYALAR (list of seminar topics)**

Amaliy mashg'ulotlar multimedia qurilmalari bilan jihozlangan auditoriyada bir akadem guruhga bir o'qituvchi tomonidan o'tkazilishi lozim. Mashg'ulotlar faol va interfaktiv usullar yordamida o'tilishi, mos ravishda munosib pedagogik va axborot texnologiyalari qo'llanilishi maqsadga muvofiq.

Amali mashg'ulotlari uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:

1. Yer turkumlarining atamaları.
2. Yer miqdorini hisobini olib borish. yer fondining yer kadastriga bog'liqligi.
3. Sug'oriladigan yerlarni unumdorligi bo'yicha baholash, bonitirovka qilish tartibi. sug'oriladigan yerlarni sifati bo'yicha sinflarga taqsimlanishi.
4. Tuproqni bonitirovkalash xaritalaridan foydalanish. sug'oriladigan yerlarni ro'yxatga olish tartibi.
5. Yerlarni baholash bo'yicha ma'lumotlardan foydalanish. viloyatda, tumanda yer kadastrini.
6. Lalmikor va yaylov yerlarni ro'yxatga olish tartibi.
7. Yer monitoringini amalga oshirish tartibi.
8. Yer kadastrini kitobini yuritish bo'yicha ko'rsatma.
9. Yagona yer solig'i.
10. Yer kadastrini va tuproq bonitirovkasi bo'yicha masala va mashqlar.
11. Yerlarning normativ bahosi.
12. Respublikaning sug'oriladigan yerlarini qiymatini baholash.
13. Sug'oriladigan tuproqlarda qo'llaniladigan bonitirovka koeffitsiyentlari.
14. Tuproq unumdorligi, gumusli holati va bonitirovkasi.
15. Lalmikor tuproqlarni baholash shkalasi. Lalmikor tuproqlarni bonitirovkalashda

pasaytiruvchi omillar.

#### **IV. Mustaqil ta'lim mavzulari (Ekomonntoring)**

Mustaqil ta'lim uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:

1. Dunyo yer resurslari va undan foydalanish samaradorligi.
2. Qishloq xo'jaligi amaliyotida yerlarni baholash bo'yicha ma'lumotlardan foydalanish.
3. Sug'oriladigan yerlarni unumdorligi bo'yicha baholash.
4. O'zbekiston Respublikasi yer fondi.
5. Yerlarning yer turlari va meliorativ holati bo'yicha hisob qilishda plan-xarita ma'lumotlaridan foydalanish.
6. Sug'oriladigan yerlarning me'yoriy bahosini hisoblash.
7. Tuproq-meliorativ monitoring.
8. Yerlarni huquqiy muhofaza qilishning mazmuni va tartibi.
9. Qishloq xo'jalik yerlarining huquqiy holati.
10. Sug'oriladigan tuproqlar unumdorligini oshirishga oid tavsiyalar.
11. Yer uchastkalarini baholash.
12. Lalmikor tuproqlarni bonitirovkalashda eroziya omili
13. Sug'oriladigan yerlarning iqtisodiy qiymati.
14. Sug'oriladigan yerlarini sifati bo'yicha sinflarga taqsimlash va kadastr baholash.
15. Yer monitoringining tizimi.
16. Yagona yer solig'i bo'yicha imtiyozlar.
17. Tuproqni bonitirovkalash uslublari.
18. Tuproq bonitirovkasining dala bosqichi va kameral tahlil ishlari.
19. Yagona yer solig'ini hisoblash va to'lash tartibi.
20. Bo'z tuproqlar mintaqasining sug'oriladigan tuproqlari.
21. Tuproqlarni ba'zi xususiyatlari bo'yicha baholash
22. Tuproqni bonitirovkalash uslublari.
23. Sho'r yerlar miqdori va sifatini hisobga olish tartibi
24. Sug'oriladigan dehqonchilik sharoitida tuproqlarda gumus miqdori va uning sifat tarkibini o'zgarishi.
25. Sug'oriladigan tuproqlarni gleyli va boshqa ildiz oziqlanishiga qarshilik qiluvchi qatlamlar bo'yicha baholash.
26. Sug'oriladigan yerlarning me'yoriy bahosini hisoblash.
27. Qishloq xo'jalik yerlarining huquqiy holati.
28. Respublikaning sug'oriladigan yerlarini qiymatini baholash.
29. Tuproqlarni mexanikaviy tarkibi, tuproq paydo qiluvchi ona jins omillariga ko'ra pasaytirish koeffitsiyentlari.
30. Lalmikor tuproqlarni ishlab chiqarish xossalari.
31. Lalmikor tuproqlarni ishlab chiqarish xossalari.

Mustaqil o'zlashtiriladigan mavzular bo'yicha talabalar tomonidan konspekt, esse, referatlar tayyorlash va ularni taqdimot qilish tavsiya etiladi.

#### **V. Ta'lim natijalari (Kasbiy kompetensiyalari) Learning Outcomes (Professional Competences)**

Fanni o'zlashtirish natijasida talaba:

3.	<ul style="list-style-type: none"> <li>• Tuproqlarning joylashish qonuniyatlarini mohiyati, yer resurslaridan samarali foydalanish, xo‘jalik ekinlari hosilini rejalashtirish, Tuproqlarning iqtisodiy, ekologik va morfologik baholash va yer narxi usullari mohiyatini bilish va Tuproq sifat baholash xaritasini tuzish yo‘llari tug‘risida tasavvur va bilimga ega bulishi;</li> <li>• Sug‘oriladigan Tuproqlar va lalmi yerlarni sifat jixatdan baholash uslublarini, yer resurslaridan samarali va oqilona foydalanishni, Qishloq xo‘jaligi ekinlari hosilini rejalashtirishni, yer maydonlarini ro‘yxatga olishni, tuproqlarni iqtisodiy baholashni, Tuproq va yer narxini bilishi va ulardan foydalana olish kunikmalariga ega bulishi;</li> <li>• Tuproqlarni sifat jixatdan baholashda unga ta‘sir etuvchi tabiiy omillarning o‘zaro bog‘liqligi xamda Tuproqlarni sifat jixatdan baholash natijalarini amliyotga tadbik eta olish malakasiga ega bo‘lishi kerak.</li> </ul>
4.	<p style="text-align: center;"><b>VI. Ta‘lim texnologiyalari va metodlari (Educational technologies and): methods:</b></p> <ul style="list-style-type: none"> <li>• ma‘ruzalar;</li> <li>• interfaol keys-stadilar;</li> <li>• amaliy mashg‘ulot (guruhlarda ishlash, tezkor savol-javoblar);</li> <li>• guruhlarda ishlash;</li> <li>• taqdimotlarni qilish;</li> <li>• individual loyihalar;</li> <li>• jamoa bo‘lib ishlash va himoya qilish uchun loyihalar.</li> </ul>
5.	<p style="text-align: center;"><b>VII. Kreditlarni olish uchun talablar (Requirements for obtaining loans):</b></p> <p>Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to‘la o‘zlashtirish, tahlil natijalarini to‘g‘ri aks ettira olish, o‘rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritish va joriy, oraliq nazorat shakllarida berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat bo‘yicha yozma ishni topshirish.</p>
6.	<p style="text-align: center;"><b>VIII. TAVSIYA ETILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI (LIST OF RECOMMENDED LITERATURE)</b></p> <p style="text-align: center;"><b>Asosiy adabiyotlar</b></p> <ol style="list-style-type: none"> <li>1. X. Nomozov, O.Normuratov. Yer kadastrı va tuproq bonitrovkasi asoslari. Termiz 2022.</li> <li>2. X.Nomozov, Sh.Turdimetov, S.Toshpo‘lotov. Tuproq bonitirovkasi va xaritalash Toshkent 2021.</li> <li>3. Qo‘ziev R., Yuldashov G.Yu., Akromov I. Tuproq bonitirovkasi. Toshkent 2004.</li> </ol> <p style="text-align: center;"><b>Qo‘shimcha adabiyotlar</b></p> <ol style="list-style-type: none"> <li>4. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz.-T.: O‘zbekiston, 2017. 488-b.</li> <li>5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish buyicha Xarakatlar strategiyasi tug‘risida”gi 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947-sonli Farmoni.</li> <li>6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta‘lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish kontseptsiyasini tasdiqlash tug‘risida”gi 2019 yil 8 oktyabrdagi PF-5847- son Farmoni.</li> <li>7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining "Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim tizimiga boshkaruvning yangi tamoyillarini joriy etish chora- tadbirlari tug‘risida"gi 2019 yil 11 iyuldagi PQ-4391-son qarori.</li> <li>8. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2019—2023 yillarda Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston milliy universitetida talab yuqori bulgan malakali kadrlar</li> </ol>



	<p>tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish va ilmiy salohiyatni rivojlantirish chora-tadbirlari tug‘risida” gi 2019 yil 17 iyundagi PQ-4358-son qarori.</p> <p>9. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli isloxtlarda faol ishtirokini ta’minlash buyicha qushimcha chora-tadbirlar tug‘risida”gi 2018 yil 5 iyundagi PQ- 3775 -son qarori.</p> <p>10. Nomozov X., va boshqalar Tuproq bonitirovkasi. Toshkent. 2004.</p> <p>11. Qo‘zиеv R.Q. va boshqalar O‘zbekiston Respublikasi lalmi Tuproqlarning unumdorlik darajasini baholash buyicha uslubiy qo‘llanma. Toshkent, 2014.</p> <p>12. X.Nomozov, Sh.Turdimetov, S.Toshpo‘lotov. Tuproq bonitirovkasi va xaritalash. “FAN VA TEXNOLOGIYA” Toshkent 2019.</p> <p style="text-align: center;"><b>Axborot manbaalari</b></p> <p>13. <a href="http://www.unlibrary.uz">www.unlibrary.uz</a></p> <p>14. <a href="http://www.hemis.tersu.uz">www.hemis.tersu.uz</a></p> <p>15. <a href="http://www.lib.tersu.uz">www.lib.tersu.uz</a>.</p> <p>16. <a href="http://www.ziyonet.uz">www.ziyonet.uz</a>;</p> <p>17. <a href="http://www.agriculture.uz">www.agriculture.uz</a>.</p> <p>18. <a href="http://www.uznature.uz">www.uznature.uz</a></p> <p>19. <a href="http://www.gov.uz">www.gov.uz</a></p> <p>20. <a href="http://www.lex.uz">www.lex.uz</a></p> <p>21. <a href="http://www.stat.uz">www.stat.uz</a></p> <p>22. <a href="http://www.e-lib.qmii.uz/ebooks.php">www.e-lib.qmii.uz/ebooks.php</a></p> <p>23. <a href="http://www.wikipedia.org">www.wikipedia.org</a></p>
7.	Mazkur fanning o‘quv dasturi Termiz davlat universiteti o‘quv-uslubiy Kengashining 2024-yil 26-iyundagi 11-sonli yig‘ilish bayonnomasi bilan ma’qullangan.
8.	<p><b>Fan (modul) uchun ma’sul:</b>  Abramatov M.B. - TerDU, Ekologiya va tuproqshunoslik kafedrası mudiri, biologiya fanlari nomzodi, dotsent.  Normuratov O.U - Ekologiya va tuproqshunoslik kafedrası dotsenti</p>
9.	<p><b>Taqrizchi:</b>  S.M. Boltayev – Termiz agrotexnologiyalar va innovatsion rivojlanish instituti professori, qishloq xo’jalik fanlari doktori</p>





